



**Тaxiatosh tumani Axborot-kutubxona markazi, Axborot-
bibliografiya xizmatining 2025-yilni – «Атроф-муhitni asrash va
«yashil» iqtisodiyot yili»ga tayyorlagan
ma'lumoti**

Prezident 2025 yilni – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishni taklif qildi.

2024 yil 20 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025 yilni – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlash taklifini kiritdi.

Tabiat va atrof-muhitni o'zgarishi faqatgina O'zbekistonda emas, butun er yuzida kuzatilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llashish va qazib olinuvchi yoqilg'i turlarini boshqaruvsiz amalga oshirilishi, dunyo bo'ylab havo haroratining ko'tarilishi va boshqa tabiiy ofatlarga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston aholisining taklif va istaklarini inobatga olgan holda, bu masalalarga alohida e'tibor qaratish rejalashtirilgan.

2025 yilda “yashil” texnologiyalarning integratsiyasi, suvni tejash, yashil hudud va maydonlarni kengaytirish, Orol dengizi falokati asoratlarini engillashtirish, chiqindi masalalarini hal etish va albatta, aholining sog'liq-salomatligiga alohida e'tibor berilishi kerakligi ta'kidlangan.

2025 yil O'zbekistonda «Atrof muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e’lon qilindi.

2025 yilda O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish va «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu haqda prezident Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi nutqida ma'lum qildi. U iqlim o'zgarishi oqibatlari O'zbekiston uchun ham, butun dunyo uchun ham tobora sezilarli bo'lib borayotganini ta'kidladi.

Prezident havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish va qazilma boyliklardan nooqilona foydalanish global isishga, tabiiy ofatlar sonining ko'payishiga, ekologiya va inson salomatligiga zarar etkazayotganini qayd etdi. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashish uchun mamlakatimizda uch yildan buyon «Yashil makon» tashabbusi va qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Mintaqaviy iqlim strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Toshkentda iqlim o'zgarishi masalalarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi Markaziy Osiyo universiteti ham tashkil etildi.

O'zbekiston BMT doirasida ikkita rezolyutsiyani taklif etib, xalqaro maydonda ekologik tashabbuslarni faol ilgari surmoqda. Shu bilan birga, «yashil» energetika mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.

Fuqarolarning takliflarini inobatga olgan holda, prezident bu ishlarni yanada faollashtirishga chaqirdi va 2025 yilni «Atrof-muhitni muhofaza qilish va »yashil« iqtisodiyot yili» deb e'lon qildi. Ushbu tashabbus parlament tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Ona tabiatni asrashga barchamiz mas'ulmiz

Yurtimizning har bir qarich yeri oltinga teng. Uning go'zal tabiati, musaffo havosi, ziloldek tiniq va shifobaxsh suvi har qanday insonni o'ziga maftun etadi. Ana shunday betakror go'zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butun yetkazish muqaddas burchimizdir.

Ammo ekologik barqarorlik, atrof-muhit tozaligiga barchamiz birday mas'uliyatni his eta olyapmizmi? Bugun ushbu mavzuda qayta-qayta bong urilayotgani bejiz emas. Sababi keyingi yillarda atmosfera havosining buzilishi, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, Orol dengizining qurishi va boshqa global ekologik muammolar insoniyatdan tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab etmoqda.

So'nggi yillarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublikamiz bo'ylab keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgani, ayniqsa, "yashil" hududlarni ko'paytirishga e'tibor qaratilayotgani odamlarning ayni ko'nglidagi ish bo'lyapti. Zero, yashab turgan joyimizni ozoda saqlab, bizdan keyingi avlod ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun bugun biz tabiatga mehr va e'tibor bersak, kelajak avlod ham munosib ekologik sharoitda yashaydi.

Ushbu jarayonda sohaning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratilib, tabiat obyektlari bo'lmish yer, suv, yer osti boyliklari, biologik resurslar va atmosfera havosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning konsepsiya va strategiyalari ishlab chiqilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ham har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lishi huquqi bo'yicha norma kiritilib, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashi qat'iy belgilab qo'yilgani e'tiborga molik. Bu o'z navbatida, inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilyapti.

Biroq shunga qaramay, bugun ayrim yurtlarimiz xonadonidan chiqqan chiqindilarni ariq va kanallarga oqizib yuborayotgani, yo'l bo'ylariga tashlab ketayotgani kishini o'ylantiradi, mushohadaga chorlaydi. Vaholanki, Bosh qomusimizning 62-moddasida fuqatolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar, deb belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, biz uchun qadri bo'lgan ne'matlarni isrof qilmaslik, xalqimizning milliy qadriyatlarini, ezgu fazilatlarimiz sirasiga kiradi. Bolaligimizda buvilarimiz, bobolarimiz "suvning har tomchisini qadriga yetgin", "suvga axlat tashlamagin", deb ko'p aytardi. Bahor kelishi bilan ariqlarni loyqadan tozalatishar, daraxtlarga shakl berib tagini oqlatardi. Keyingi paytlarda bu an'analar yodimizdan ko'tarilayotgandek go'yo. Ayting, ahvol shu zaylda ketaversa, bolalar ona tabiatni sevishni kimdan o'rganadi?

Keyingi yillarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish eng dolzarb masalalardan biriga

aylangani bejiz emas. Zero, tabiatni asrash — bu insonni, kelajakni asrash demakdir.

Davlatimiz rahbarining nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida ilgari surayotgan tashabbuslar zahirida ham atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, global iqlim o'zgarishlariga jahon xalqlari bilan birgalikda moslashish va unga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadi mujassam. 2025-yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilingani ana shu maqsad yo'lidagi muhim qadamdir. Shu jihatdan, yangi yilda oldimizda muhim vazifalar turibdi. Bu borada ekologik vaziyatni yaxshilash, "yashil makon" umummilliy harakatini chinakam xalq harakatiga aylantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini iste'moldagi ulushini oshirish orqali "yashil" texnologiyalarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratamiz.

Umuman olganda, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ona tabiatimizni asrab-avaylash shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroning nafaqat konstitutsiyaviy, balki kelajak avlod oldidagi eng mas'uliyatli burchidir. Demak, ona yer, zilol suv, musaffo havo, go'zal tabiatimizni asrashimiz, ulardan oqilona foydalanishimiz zarur.

*Gulchehra JO'RAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati*

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro va milliy huquqiy standartlari.



Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Atrof-muhit muhofazasi nihoyatda muhim. Yashash uchun tabiatni asrashimiz, tabiiy resurslarni oqilona boshqarishimiz, ulardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, bugungi kunda er sharidagi ko'plab ekotizimlar zaxirasi deyarli butkul tugab, ortga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yuz tutgan, boz ustiga aholi nufusi o'sib borayotgan, iqtisodiy taraqqiyotga ehtiyoj kun sayin ortayotgan vaziyatda atrof muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa sanaladi.

Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan huquqiy asoslar xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlar asosida ko'rib chiqildi.

I. Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro standartlari.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro ekologik hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda - er yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv -shartnoma, konventsiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli tadbir choralar kompleksi tushuniladi.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro doirada qo'yilgan birinchi qadamlardan 1913-yilda Bern (Shvetsariya)da 18 ta davlat ishtirokida "Tabiatni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferentsiya o'tkazish bo'ldi. 1923-yilda esa Parijda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tdi. 1928-yilda Bryussel (Belgiya)da "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" ochildi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e'tibor bir muncha kuchaydi.

1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishi munosabati bilan atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Dastlab 1948-yilda BMT tashabbusi bilan "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" "Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi" ga aylantirildi. Hozirgi kunga kelib ushbu ittifoq faoliyatida dunyoning 118 mamlakatidan 636 tadan ziyod davlat va jamoatchilik tashkilotlari ishtirok etmoqdalar.

Shuningdek, bugungi kunda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlaridan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Xususan:

YuNESKO - ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhit muhofazasi sohasida maorif va kadrlar tayyorlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan.

FAO - oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkilot. U er, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanadi.

JST - xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti. Atrof-muhit muhofazasining sanitar gigienik masalalari bilan shug'ullanadi.

XMT - xalqaro meteorologik tashkilot. Iqlimdagi umum sayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadi.

DMT - dengizlar bo'yicha davlatlararo maslahat tashkiloti. Bu tashkilot dunyo dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug'ullanadi.

Yuqoridagilardan tashqari BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi kengashi - EKOSOS faoliyatida ham atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e'tibor beriladi.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 1985-yilgi ozon qatlamini himoya qilish (Vena) konventsiyasi, 1987-yilgi ozon qatlamini emiruvchi birikmalar bo'yicha Protokol (Monreal), 1989-yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konventsiyasi, 1992-yilgi (Rio-de-Janeyro) biologik rang-baranglikni saqlash konventsiyasi, 1992-yilgi (Nyu-York) iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konventsiyalar mavjud.

Xalqaro atrof-tabiiy muhitni muhofazalash kuni.

1972-yilda Stokgolm (Shvetsiya)da 113 mamlakat, turli davlatlararo va nodavlat tashkilotlari ishtirokida BMTning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha konferentsiyasi o'tkazildi. Uning natijalari asosida "Atrof-muhit to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi.

Stokgolm konferentsiyasi qarorlari BMTning 32 -Bosh Assambleyasida ko'rib chiqildi va ular asosida 11 ta rezolyutsiya qabul qilindi. Bu rezolyutsiyalarda BMTning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi tadbirlarining tashkiliy ma'muriy va huquqiy asoslari yoritib berildi.

Atrof-muhit muhofazasi masalalariga dunyo jamoatchiligi e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadida 1972 - yil BMTning 1-jahon kongressida har yili 5 iyunni "Xalqaro tabiatni muhofazalash kuni" deb e'lon qilindi. Shu yili BMT Bosh Assambleyasining 27-sessiyasida davlatlararo hamkorlikning tashkiliy va moliyaviy tadbirlarini belgilovchi "Tashqi muhit bo'yicha BMTning ish dasturi" (YuNEP) va uni boshqaruvchilari Kengashi ta'sis etildi. 1973-yil (Stokgolm) mazkur kengashning 1-sessiyasida "Atrof-muhit sohasidagi harakat dasturi" muhokama qilinib, unda XEHning 7 ta eng asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

1982-yilda BMT "Umumjahon tabiat Hartiya"sini tasdiqladi. Uni insonning tabiatga munosabatini belgilovchi o'ziga xos kodeksi deyish mumkin.

1985-yilda Venada (Avstriya) BMT rahnamoligida ozon qatlamini muhofazalash bo'yicha konventsiya qabul qilindi. Ushbu konventsiyadan kelib chiqib dunyoning bir qator mamlakatlari ozon qatlamini emiruvchi moddalar ishlab chiqarishni to'liq to'xtatish yoki qisqartirish bo'yicha ixtiyoriy majburiyatlar oldilar. Konventsiyada bundan tashqari ozon qatlamini muhofazalashning turli jihatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror Rivojlanish sohasidagi 17 ta milliy maqsad va vazifalarning 13, 14, 15 maqsadlari bevosita atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi vazifalarni va yo'nalishlarni belgilab bergan.

Bunda:

13-maqsad: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash

Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni ko'rish;

14-maqsad: Dengiz ekotizimlarini asrash

Barqaror taraqqioyt yo'lida okeanlar, dengiz va dengiz resurslarini asrash va ulardan oqilona foydalanish;

15-maqсад: Er ekotizimlarini asrash
O'rmonlardan oqilona foydalanish, qumlanishga qarshi kurash, erlarning tanazzulga uchrashi jarayonini to'xtatib, erlarni qayta tiklash, biologik xilma-xillikning yo'qolib ketishini to'xtatish.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning milliy standartlari.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 50, 54, 55 va 100-moddalarida fuqarolarning ushbu sohadagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhitga munosabat va boshqaruv tizimi bo'g'inlarining faoliyati belgilangan. Jumladan, 50-moddada "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir"lar deyiladi. 100-moddada atrof-muhitni muhofaza qilish mahalliy hokimlik organlari vazifasiga kirishi ta'kidlangan.

Shuningdek, 1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Qonun 30 ta moddadan iborat bo'lib, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, fuqarolarining huquq va majburiyatlari, standartlar va me'yoriy hujjatlar, havo muhitiga zarar etkazganlik uchun javobgarlik kabi moddalar mavjud.

1994-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Er osti boyliklari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Qonun 10 ta bo'lim va 51 ta moddadan iborat.

1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvlardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan.

1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan.

2000 - yilda O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida" gi qonuni qabul qilingan.

2001-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida" gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunda respublika hududida chiqindilardan foydalanish, ularni qayta ishlash, eksport qilish tartibi, bu borada korxonalar va tashkilotlarning huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ikkinchi chaqiriq 7 - sessiyasida O'zbekiston hududida "Biologik rang-baranglikni saqlash" konventsiyasi ham qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda o'zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5863-son Farmoni qabul qilingan. Ushbu Farmon doirasida kontseptsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan uch yil muddatga alohida-alohida tasdiqlanadigan «yo'l xaritalari» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Kontseptsiya ko'rsatib o'tilgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi

esa kelajak avlodlarning manfaatlari yo'lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Kontseptsiyaning maqsad va vazifalari:

O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta'minlash; atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish; atrof muhit ob'ektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash.

Quyidagilar Kontseptsiyaning vazifalari hisoblanadi:

atrof muhit ob'ektlarini (er, suv, atmosfera havosi, er qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo'riqlanishini ta'minlash;

qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

atrof muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish;

atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda BMTning atrof-muhit muammolari bilan shug'ullanuvchi 7 ta missiyasi faoliyat ko'rsatmoqda, ayniqsa, Orol va Orol bo'yidagi ekologik muammolar Xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib ushbu yo'nalishda turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1993 yil 18 mayda Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konventsiyasiga va Ozon qatlamini emiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga qo'shildi.

2030 yilda gidroklorflorog'irlerodlar ishlatishni batamom to'xtatish O'zbekiston uchun Monreal protokolining xalqaro majburiyatlarini bajarishga rioya etishning strategik yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston 1993 yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konventsiyasining (Nyu-York, 1992 yil may) a'zosi hisoblanadi, ushbu Konventsiyaga Kioto protokoli 1998 yilda imzolangan va 1999 yilda ratifikatsiya qilingan, Parij bitimi esa 2017 yilda imzolangan va 2018 yilda ratifikatsiya qilingan.

O'zbekiston 1992 -yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Xitoy, Gruziya, Hindiston, Isroil, Yaponiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Malayziya, Koreya Respublikasi, Slovakiya, Shveytsariya, Tojikiston, Tailand, Turkiya, Turkmaniston va Ukraina bilan atrof-muhitga tegishli komponentlar kiritilgan bir qator ikki tomonlama bitimlar imzolagan.

Ushbu bitimlarda O'zbekiston quyidagi sohalarda hamkorlik qiladilar:

1. Suv va havoning ifloslanishi monitoringi texnologiyalari.
2. Tabiatni muhofaza qilish ilmi va texnologiyalari tadqiqotlari.
3. Ekologik ta'lim, mutaxassislarni tayyorlash va targ'ibot.
4. Tabiatni muhofaza qilish rayonlarini boshqarish va biologik turlarni himoya qilish.
5. Ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyasi.
6. Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar, qonun-qoidalar, siyosat va standartlar, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishi va mahsulotlari uchun ekologik standartlar.
7. Tomonlar kelishib olgan atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga taalluqli hamkorlikning boshqa sohalari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikka tortish masalalari O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik me'yorlarida belgilangan. Ma'muriy kodeksda jinoyat turiga qarab turli miqdorda jarimalar to'lash va ma'lum huquqdan mahrum qilish jazolari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 4-bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar" deb yuritiladi. Jinoyat kodeksida Ekologiya sohasidagi turli jinoyatlar uchun jarima to'lash, muayyan huquqdan mahrum qilish, mol-mulkni musodara qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish choralari belgilangan.

*Iqbol Abdumajidov
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi
Inson huquqlari bo'yicha
xalqaro hamkorlik bo'limi
etakchi mutaxassisi*



Xalqaro Atrof-muhitni muhofaza qilish kunini nishonlash doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon miqyosida dolzarb bo'lgan ekologik muammolar to'g'risida xalqaro jamoatchilikni xabardor etib, shu muammolarni echishga dunyo xalqlarini chorlaydi. O'sha yillar davomida mazkur kun 100 dan ortiq mamlakatda nishonlandi, hozirda ekologik muammolarni echishga yordam beruvchi muhim bir zamin bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu kunda barcha xalqlar birlashib, atrof-muhitni muhofaza qilishga, onagerimizni asrab qolishga o'zining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniga ega bo'ladilar.

Xalqaro Atrof-muhitni muhofaza qilish kuni BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1972-yil Stokgolmda bo'lib o'tgan Insoniyat muhiti mavzuidagi konferensiyada joriy etilgan.

Ushbu sana nimaga muhim?

- insoniyat farovonligi, atrof-muhit sog'lomligi, iqtisodiyot samaradorligi erimizda mavjud bo'lgan tabiiy resurslarni oqilona boshqarishimiz, ulardan tejamkorona foydalana olishimizga bog'liqdir

- hozirgi kunda er sharidagi ko'plab ekotizimlarning zaxiralari deyarli butunlay tugab, ortiga qaytarib bo'lmaydigan salbiy jarayonlarga yuz tutgan, buning ustiga butun dunyoda aholining o'sib borishi, iqtisodiy rivojlanish kabi omillar mazkur muammoning yanada chigallanishiga olib kelyapti

- 2050-yilga kelib dunyo aholisining soni 9,6 milliardga etib qolishini inobatga olganda, tabiiy resurslarni hozirgi sur'at va hajmlarda iste'mol etishimizni, mahsulot ishlab chiqarishimizni davom etaversak, kelajakda bizga hozirgi er sharimizning kattaligidagi yana uchta er shari kerak bo'ladi

Mazkur sana nafaqat ona-er tuhfalarini qadrlash, erimizda mavjud bo'lgan boy biologik xilma-xillikni asrash kunidir. Ushbu kunda biz barchamiz ona-erimizni qanday qilib muhofaza qilishimiz, uning tabiatini qanday asrashimiz, hozirda dolzarb bo'lib qolgan ekologik muammolarni qanday echishimiz mumkinligi to'g'risida chuqur o'ylashimiz, er-sharimizni yanada go'zalroq, sog'lomroq qilish yo'llarini izlashimiz lozimdir.

BMT ushbu sanani qay tarzda nishonlaydi?

Mazkur sanani nishonlash bilan bog'liq keng ko'lamdagi tadbirlarni muayyan bir shior ostida, yoki mavzuda o'tkazish vazifasi har yili alohida bir mamlakatga yuklatilib, shu mamlakatda 5 iyun kuni to'g'ri keladi, hafta davomida xalqaro ko'rgazma tashkil etiladi. 2015-yilda ushbu sana "Etti milliard orzu. Yagona sayyora. Iste'molimizda tejamkor bo'laylik " shiori ostida nishonlanib, tegishli tadbirlar Italiyada tashkillashtirildi.

Mazkur sanani nishonlashda butun dunyo bo'ylab 70 ta mamlakatda millionlab odamlar ishtirokida keng ko'lamli tadbirlar o'tkaziladi. Har yili kekxa va yosh faollar turli ko'rgazmalar, atrof-muhitni tozalash ishlari, hasharlar, konsertlar, OAV ishtirokidagi bir qator tadbirlar, turli tanlov va musobaqalar tashkillashtirishda qatnashadilar.

Internet manbalaridan foydalanildi.

Tayyorlagan:

J.Kadirbaeva